


## SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyun \*)

2019 yilning yanvar-iyun oylarida, viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 6829,0 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 108,3% ga oʻsdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 875,0 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 170,6%), kichik tadbirkorlik subʼyektlarining tovar aylanmasi 5954,0 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 102,8%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 827,9 mlrd. soʻm (oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 91,9 %)ni tashkil etdi.


### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. soʻm)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining oʻsish surʼatlari kuzatilib, nisbatan yuqori oʻsish surʼatlari Samarqand va Kattaqoʻrgʻon shaharlari, Jomboy, Narpay va Samarqand tumanlarida qayd etildi.

\*-dastlabki maʼlumot

**Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)**




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 170,6 % ga o`tdi va 875,0 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,8 % ulushiga to`g`ri keldi.


Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 5954,0 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 102,8 % ga o`tdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,2 % ga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)**

2018 yil yanvar-iyun




2019 yil yanvar-iyun



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,9%), Bulung'ur (99,9%), Nurobod (99,9%), Tayloq (99,8%), Qo'shrabot (99,8%) va Narpay (99,8%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 12,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (36,4%), Samarqand tumanida (30,8%) va Pastdarg'om tumanida (4,4%) kuzatildi.

### Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi


Hudud nomi	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>875,0</b>	<b>170,6</b>	<b>5954,0</b>	<b>102,8</b>
Samarqand shahri	706,1	209,7	1233,9	88,5
<i>Kattaqo`rg`on shahri</i>	0,5	55,5	394,7	107,7
<i>tumanlar:</i>				
Bulung`ur	0,6	-	391,2	106,1
Jomboy	1,8	-	206,9	107,9
Ishtixon	5,4	-	292,0	104,9
Kattaqo`rg`on	1,3	-	285,4	105,6
Narpay	0,6	-	241,1	107,3
Nurobod	0,3	-	258,5	106,2
Oqdaryo	1,3	-	153,5	104,8
Payariq	1,2	-	263,1	106,5
Pastdarg`om	22,7	60,5	489,6	111,2
Paxtachi	0,9	-	234,5	105,7
Samarqand	117,7	88,2	264,2	121,2
Tayloq	0,4	-	200,6	106,2
Urgut	13,7	3,1 m.	823,0	105,2
Qo`shrabot	0,5	-	221,8	107,0

**Hududlarda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



Kichik tadbirkorlik sub'yektlari chakana savdo tovar aylanmasi hajmi yuqori bo'lgan Samarqand shahri 1 233,9 mlrd. so'm, Urgut tumani 823,0 mlrd. so'm, Pastdarg'om tumani 489,6 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on shahri 394,6 mlrd. so'm, Bulung'ur tumani 391,2 mlrd. so'm, Ishtixon tumani 292,0 mlrd. so'm, Kattaqo'rg'on tumani 285,4 mlrd. so'm va Payariq tumani 263,1 mlrd. so'mlik hajm bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Chakana savdo tovar aylanmasida tumanlarning ulushi, (%)



2019 yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1 789,6 ming. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,1 % ga ko'paydi. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahri (4 469,5 ming. so'm), Samarqand shahri (3 590,7 ming. so'm) va Bulung'ur tumani (2 134,9 ming. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Oqdaryo (990,7 ming. so'm), Tayloq (1 021,5 ming. so'm) va Kattaqo'rg'on (1 069,1 ming. so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Hududlar nomi	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1 789,6</b>	<b>106,1</b>
Samarqand shahri	3 590,7	110,2
Kattaqo`rg`on shahri	4 469,5	105,9
<i>tumanlar:</i>		
Bulung`ur	2 134,9	104,1
Jomboy	1 238,5	106,0
Ishtixon	1 195,0	104,5
Kattaqo`rg`on	1 069,1	103,9
Narpay	1 153,5	105,7
Nurobod	1 753,8	104,1
Oqdaryo	990,7	103,7
Payariq	1 077,5	104,6
Pastdarg`om	1 474,5	105,0
Paxtachi	1 659,0	104,0
Samarqand	1 543,9	106,4
Urgut	1 683,0	103,6
Tayloq	1 021,5	104,1
Qo`shrabot	1 724,1	104,8

2019 yilning yanvar-iyun oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,3 % ni tashkil etib, 158.6 mlrd. so`mga yetdi, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 110,3% o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 90,7% ulushi kichik tadbirkorlik sub'yektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


## SAMARQAND VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyun\*)

Joriy yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 740,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 112,7 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'yektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra 1 883,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,5% ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 68,7% ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar esa, 857,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 144,0% ga o'sdi.

### Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik va kichik korxonalarning ulushi, (%)



\*-dastlabki ma'lumot

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-85-23  
66-235-65-80**